E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

KONSTITUTSIYA ASOSIY QONUNIMIZ!

Sultanov Og‘abek Asadulla o‘g‘li
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti iqtisodiyot fakulteti biznes va innovatsion menejment kafedrasi III – bosqich talabasi

Sultanovogabek003@gmail.com

Annottatsiya

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Kalit so‘zlar

Adolat, konstitutsiya, qomus, prinsip, sarhad, jamiyat, huquq.

Аннотация

Конституция (лат. «Constitution» — структура, порядок) — Основной закон государства. Он определяет структуру государства, систему органов власти и управления, их полномочия и порядок их формирования, избирательную систему, права и свободы граждан, взаимоотношения общества и личности, а также судебную систему. и взаимоотношения государства и общества. Термин «Конституция» был известен уже в Древнем Риме (закон, называвшийся Императорской конституцией). «Тузуклар» Амира Темура имел характер конституционного документа особой формы, свойственной цивилизации стран Востока и Азии. Наряду с законами шариата оно оказало сильное влияние на судьбы народов Среднеазиатского региона.

Ключевые слова

Правосудие, конституция, словарь, принцип, граница, общество, закон.

Annotation

The Constitution (Latin "Constitution" - structure, order) is the Basic Law of the state. It defines the structure of the state, the system of power and management bodies, their authority and the order of their formation, the electoral system, the rights and freedoms of citizens, the relationship between society and the individual, as well as the judicial system and the relationship between the state and society. The term "Constitution" was already known in Ancient Rome (the law called the Imperial Constitution). Amir Temur's "Tuzuklar" had the character of a constitutional document of a special

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

form typical of the civilization of Eastern and Asian countries. Along with Sharia laws, it had a strong influence on the fate of the peoples of the Central Asian region.

Key words

Justice, constitution, dictionary, principle, border, society, law.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharafli solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo‘lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo‘lmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan.

Tarixdan ma’lumki qonun va qonun qoidalar ma’lum bir imkoniyat va cheklovlardan tashkil topgan. Bizga yetib kelgan eng qadimiy qonunlardan biri Bobil podshosi Xammurapi tomonidan tuzilgan bo‘lib, bu qonun quldor tuzumi huquqining xarakterli belgilarini o‘zida aks ettirgan. Bu qonun qaydlari qadimgi Sharq huquqining qimmatli yodgorligi sanalib, bu yerlarda azaldan qonun ustuvorligi ko‘rinib turadi.

Shu bilan birga Qadimgi Rimda ham qonunlar juda qat’iy va shafqatsiz bo‘lishiga qaramay aniq belgilab berilgan bo‘lib, “Konstitutsiya” atamasi ham imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun tufayli yuzaga kelgan.

Mamlakatimizning uzoq tarixida esa qonunlar doim ezgulikka va taraqqiyotga, asosan vatan sha’ni, tinchlik, sarhadlar daxlsizligi, fidokorlik va sadoqat kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan. Birgina misol “Temur tuzuklari” nomi bilan Sharq va Osiyo mamlakatlari svilizatsiyasiga xos bo‘lgan sarkarda Amir Temur tomonidan tuzilgan qonun bitiklari konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lib, yuqorida ko‘rsatilgan jihatlarni o‘zida jamlab shar’iy qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Mamlakatimiz Respublika miqyosiga erishgan yangi tarixdagi Asosiy qonunimiz ya’ni konstitutsiyaga ega bo‘lgan bo‘lsa, Mustaqillikka erishgach bu qonunga ikki marta 100 ga yaqin tuzatish va o‘zgartirishlar kiritilgan. O‘zgartirishlardan so‘ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat qonunimiz bugungi kunda Mustaqillik yillarida erishgan eng muhim yutuqlaridan biri bo‘lib, fuqarolarning jamiyatdagi hayoti, huquq va burchlarini muntazam himoya qilish vazifasini bajarmoqda.

Baxtimiz qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamiz millatidan qat’iy nazar barcha o‘zbek xalqi, fuqarosining butun bir imkoniyati va majburiyatlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, hali uzoq yillar davomida yangi O‘zbekistonning baxtli va kelajagi buyuk avlodlari uchun ham munosib xizmat qiladi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

8-dekabr xalqimiz nazdida tenglik, teng huquqlilikka imkoniyatlar kuni bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O‘zbekiston respublikasining asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy-huquqiy hujjat.

Yangi konstitutsiya tahriri

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri[1]2023- yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan[2].

Tarixi: 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu konstitutsiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya Prezidenti Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpoq respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo‘jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan. Oliy Kengashning 10sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e’lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko‘rib, loyihani tuzatib va ma’qullab Oliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama modda muhokama etilgandan so‘ng qabul qilingan.

Kiritilgan o‘zgarishlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritiladigan o‘zgartirishlar (2023) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 14-marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan:[3]1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi 1-qismidagi „150 nafar deputatdan“ degan so‘zlar „deputatlardan“ degan so‘z bilan almashtirildi;

2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan;

2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93- moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;

2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga o‘zgartish kiritilgan;

2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 32, 78. 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 93, 108 va 109-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan;

2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi „ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini“ degan so‘zlar „raisni (oqsoqolni)“ degan so‘zlar bilan almashtirilgan;

2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi „Milliy“ degan so‘z „Davlat“ degan so‘z bilan almashtirilgan;

2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o‘zgartirishlar kiritilgan;

2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek:
2021-yil 8-fevral kuni „O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida“gi qonun qabul qilindi. O‘zgartirishga ko‘ra, O‘zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudi;

O‘zbekiston respublikasi oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog‘iston respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;

tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma’muriy sudlari[4].

Tuzilish jihatdan

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

1-bo‘lim (I-IV bob, 1-4-moddalar) Asosiy prinsiplar deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi asosiy konstitutsiyaviy prinsiplari ko‘rsatilgan. Bunday prinsiplar qatoriga davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosat tamoyillari kiradi.

2-bo‘lim (V-XI bob, 19-64-moddalar) Inson va fuqarolarning Asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb atalgan bo‘lib, inson huquqlari O‘zbekistonga xos yaxlit va keng tizimidir. Konstitutsiya O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolikni o‘rnatdi. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. O‘zbekistonda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi Konstitutsiyada mustahkamlangan, har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli, meros huquqi bilan kafolatlanadi. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqiga egadir. Barcha fuqarolar dam olish huquqiga ega bo‘lib, ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi. Har bir inson bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Konstitutsiyada har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xattiharakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquklidirlar. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish fuqarolar uchun majburiydir. O‘zbekistonni himoya qilish – mamlakat har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

3-bo‘lim "Jamiyat va shaxs"'(XII-XV bob, 65-82-moddalar) deb ataladi. Bu bo‘limda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi kafolatlanishi bayon etilgan. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, foydalanishi va uni tasarruf etishi ta’kidlanadi. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Konstitutsiyada ko‘rsatilishicha, otaonalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, shuningdek, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z otaonalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzurata yo‘l qo‘yilmasligi alohida ta’kidlanadi.

4-bo‘lim Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi (XVI-XVII bob, 83-90-moddalar) O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishiga bag‘ishlangan.

5-bo‘lim'(XVIII-XXVII bob, 91-153-moddalar) ' Davlat hokimiyatining tashkil etilishi haqida bo‘lib, unda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati asoslari, O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyati, saylov tizimi, prokuratura, moliya va kredit, mudofaa va xavfsizlikka oid alohida boblar bor.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi so‘nggi 6-bo‘lim (154-155-moddalar) da o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida 2/3, qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun–8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilindi. Shu kundan boshlab O‘zbekiston ham o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ↑ „O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI“. Lex.uz. Qaraldi: 1-oktabr 2023-yil.
2. ↑ „Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o‘zgarish“. Ku.uz. Qaraldi: 1-oktabr 2023-yil.
3. ↑ „O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi“. LexUz.
4. ↑ „Ўзбекистонда Конституцияга ўзгартиришлар киритилди“. Bugun.uz. 9-iyul 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2021-yil 9-fevral. (Wayback Machine saytida 2021-07-09 sanasida arxivlangan)
5. ↑ Ziyonet.uz

WORDLY KNOWLEDGE